XALQ DEPUTATLARI QUMQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING
QARORI
Qumqo‘rg‘on tumani,O‘zbekiston shoh ko‘chasi 1-uy.190900,tel.: (+99876)46-52-511

2022 - yil 30 - dekabr VI-57-180-8-114-K/22 Qumqo‘rg‘on tuman hokimligi

Qumqo‘rg‘on tumanidagi mahallalar chegaralarini o‘zgartirish va belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 16-avgustdagi PQ–353-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov tomonidan joriy yil 18-avgustdagi 02/1-2160-son bilan tasdiqlangan nazorat rejasi 4.2-bandida, har bir mahallaning aniq chegaralarini belgilash tartibini ishlab chiqish, 4.3-bandida, 2023-yil 1- yanvarga qadar Kadastr agentligi bilan birgalikda har bir mahallaning aniq chegaralarini belgilash topshirig‘i ijrosini ta’minlash maqsadida, Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) filiallari tomonidan mahallalar chegaralarini belgilashda foydalanishi uchun, Kadastr agentligi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-son qaroriga asosan, xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-son qarori ijrosi yuzasidan mahallalar chegaralarini belgilash bo‘yicha hujjatlarni tayyorlashda bir xillikni ta’minlash maqsadida, Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) filiallari hamda Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi tuman (shahar) bo‘limlari bilan hamkorlikda ishlarni tashkil qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2022-yil 15-sentabrdagi 11-08094 – son xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Qumqo‘rg‘on tumanidagi hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga mahallalarning chegara hududlarining yangi ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat kadastrlar palatasi Qumqo‘rg‘on tuman filiali (A.Tojiyev), Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (B.Djumayev):

- hududiga o‘zgartirish kiritilgan mahalla fuqarolar yig‘inlari aholisi o‘rtasida tegishli tushuntirish ishlari olib borilsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari, geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi o‘rinbosari (N.Allanazarov), Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (B.Djumayev), tuman qurilish bo‘limi boshlig‘i (E.Karamatov), Davlat kadastrlar palatasi Qumqo‘rg‘on tuman filiali boshlig‘i (A.Tojiyev) tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (Z.Tursunov), tuman statistika bo‘limi boshlig‘i (Sh.Allayarov), tuman moliya bo‘limi boshlig‘i (Sh.Poyanov), tuman davlat xizmatlari markazi rahbari (Sh.Bo‘tayev) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda mahalla fuqarolar yig‘inlari chegaralarini, aholi va xonadonlar sonini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, elektron bazani shakllantirish, moliyalashtirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirsinlar.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (O.Jiyanov) chegara hududlari o‘zgargan mahalla fuqarolar yig‘inlarida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

6. Mazkur qaror “Qumqo‘rg‘on sadosi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Z.Allayarova), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Namozov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.Normamatov**